

Davladiyarova Shahzoda Komiljon qizi

137 - maktabgacha ta'lim tashkiloti

musiqasi rahbari

Anotatsiya: Bu maqolada musiqa o‘qituvchilarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiy-estetik didini rivojlantirish uchun kerakli maslahatlar va pedagogik jarayon mazmuni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: spesifik xususiyatlari, lad, dinamika, tebr, alteratsiya belgilari.

Bugungi kunda musiqa insonning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, uning hissiyoti va ruhiyatiga faol tasir ko’rsatadi.¹ Umumta’lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchilami nafosat olamiga olib kirish va ma’naviy tarbiya berish. Bunda o‘qituvchi bolalami ma’lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, “jonli” qilib ijro etib, o‘quvchilar diqqat-e’tiborini asarga jalb etadi, ulaming nutqini ostirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotSIONAL his-tuyg’ularga ham faol ta’sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o’zlashtirishi emas, balki o‘quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish. estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his-tuygularini shakllantirish nazarda tutiladi.

O‘qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalami o‘z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;
- hayot va san’at o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni ifodalash.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o‘qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko’rishi, o‘z ustida tinmay ishlashi, ya’ni bilim saviyasini oshirish uchun ilmiy adabiyotlar,

¹ Rauf Qodirov. Musiqa pedagogikasi: - Toshkent”, 2013.

www.tadqiqotlar.uz

5-to’plam 1-son mart 2024

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (o'quvchilami) ongini oshirish yo'llarini takomillashib borishi zarur. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi did bilan namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi.² Texnika vositasi, metodik ko'rgazmali qurollar, pianino cholg'u asbohi va o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan jihozlangan bo'lishi, yangi dasturdlardan foydalana olishi, dars reja konspektalarini tuzib yangi texnologiyani qo'llab olib borilishi kerak. Shunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyati maqsadi va mazmuni darsni yoritib, hayot bilan bog'lab darsning hamma qismlarini bir-biri bilan uzviy olib borishini talab etadi³. Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsiyonal tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darsi eng avvalo, tarbiya darsidir.

Musiqa darslari quyidagi spesifik xususiyatlari bilan boshqa darslardan farq qiladi:

1. Musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir beshta faoliyat turlari: vokal — xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa (tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish. ritmik harakatlar bajarish elementlari bilan farq qiladi.
2. Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, yani "tili» kuy, lad. dinamik belgilari, temp, alteratsiya belgilari, intervallar) bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan, tasviriy san'at ranglar bilan, raqs harakati bilan ifodalansa, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang bilan ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarini korish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani raqatquloq bilan tinglabgina ifoda etamiz, shuning uchun ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan.
3. Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan belgilangan san'atdir. Shuning uchun ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asarni qayta-qayta

². Sterkina, R. B. Rekomendatsii po organizatsii raboti doshkolnix uchrejdeniy Tekst./R.B. Sterkina, O. Knyazeva // Doshkolnoe vospitanie. 1992. - №2.

³ G.M.Sharipova, D.A.Karimova, Sh.N.Raximov, G.I.Ualiyev, "Musiqa madaniyatfanini o'qitishda zamonaviy yondoshuvlar va innovatsiyalar modulli bo'yichao'quv-uslubiy majmua". T.: TDPU. 2017 y.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tinglaganda uning yangi badiiy qirvalarini his etamiz. Musiqa aniq vaqt o'lchoviga ega.

4. Musiqa bolalarga faol emotsiyal ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darslaridan bolalar hordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bolib chiqadilar.

Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi. Boshlang'ich sinflarda musiqa darsi beshta faoliyat tundan tuziladi:

1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinglash.
4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish.
5. Bolalar cholg'u asboblarida jor bo'lishdan iborat⁴

Xulosa qilib aytganda yang dastur mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi ijodkor bo'lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga ega bo'lishi lozim.

Adabiyotlar

1. Rauf Qodirov. Musiqa pedagogikasi: - Toshkent", 2013.
2. Sterkina, R. B. Rekomendatsii po organizatsii raboti doshkolnix uchrejdeniy Tekst./R.B. Sterkina, O. Knyazeva // Doshkolnoe vospitanie. 1992. - №2.
3. G.M.Sharipova, D.A.Karimova, Sh.N.Raximov, G.I.Ualiyev, "Musiqa madaniyatifanini o'qitishda zamonaviy yondoshuvlar va innovatsiyalar moduli bo'yichao'quv-uslubiy majmua". T.: TDPU. 2017 y.
4. D.A. Karimova "Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash. Darslik. T: 2021y.
5. Hasanov A. "Musiqa va tarbiya". T; 1993 y.
6. Trigulova A.X.va boshq. Musiqa nazariyasi.T; 2013 y

⁴ D.A. Karimova "Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash. Darslik. T: 2021y.

www.tadqiqotlar.uz

5-to'plam 1-son mart 2024